

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 326 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati.....	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili.....	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqulovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinovna	



“Deviant xulq-atvorli o’smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o’g’li, Qurbanov Ulug’bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o’zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo’rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo’nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O’zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o’g’li	
Qishloq xo’jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o’zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po’latov Abdulloh Xolxo’jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo’llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o’g’li	
Sun’iy intellektlar yordamida o’quvchilarni hayotiy faoliyat ko’nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo’rayevna, Kurbanov Azimjon Jo’raboy o’g’li	
The role of tax incentives in attracting investments and assessing their effectiveness	310
Kudiyarov Kishibay	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o’g’li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	



RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR BANK TIZIMIDA RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH AFZALLIKLARI

Xodjimamedov Akmal Ashurovich

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Email: khodjimamedov@rambler.ru

ORCID: 0000-0002-0876-6671

Umedov Abdullo Umedovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: So'nggi yillarda tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy innovatsion texnologiyalar samaradorlikni oshirish va moliyaviy xizmatlardan keng foydalanishga olib kelayotgan bo'lsa-da, ular ma'lumotlar xavfsizligi hamda maxfiylik muammolari kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlarning global mintaqalararo bank bozorlarida raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Bunga qulay me'yoriy-huquqiy baza yaratish, infratuzilmaga sarmoya kiritish, shuningdek, raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni oshirish uchun salohiyatni rivojlantirish orqali erishish mumkinligi haqida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: bank, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, FinTech, moliyaviy innovatsiyalar, robo-maslahatchi, blokcheyn, mobil ilova.

Abstract: Recent studies have shown that while innovative financial technologies are leading to increased efficiency and greater access to financial services, they also pose challenges such as data security and privacy issues. This article argues that the adoption of digital financial technologies is essential for developing countries to remain competitive in global interregional banking markets. This can be achieved by creating a conducive regulatory framework, investing in infrastructure, and building capacity to improve digital literacy and skills.

Key words: Banking, innovation, digital technology, FinTech, financial innovation, robo-advisor, blockchain, mobile app.

Аннотация: Исследования последних лет показали, что, хотя инновационные финансовые технологии способствуют повышению эффективности и широкому использованию финансовых услуг, они также создают проблемы, связанные с безопасностью данных и конфиденциальностью. В статье утверждается, что внедрение цифровых финансовых технологий имеет решающее значение для того, чтобы развивающиеся страны оставались конкурентоспособными на мировых межрегиональных банковских рынках. Сделан вывод, что этого можно достичь путем создания благоприятной нормативно-правовой базы, инвестирования в инфраструктуру и наращивания потенциала для повышения цифровой грамотности и навыков.

Ключевые слова: Банковское дело, инновации, цифровые технологии, FinTech, финансовые инновации, робо-консультант, блокчейн, мобильное приложение.

KIRISH

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati kundan-kunga ortib borayotgan bir davrda, hali ham yetarlicha o'rganilmagan ko'plab munozarali masalalar va hal etilmagan muammolar mavjud. Masalan, Bitcoin kabi raqamli valyutalarning ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasi



sifatida an'anaviy valyutalar o'rnini qanchalik egallashi mumkinligi, hamda ular moliya tizimining barqarorligiga tahdid soladimi-yo'qligi haqida iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari o'rtasida bahs-munozaralar davom etmoqda.

Shuningdek, ushbu yangi texnologiyalar uchun maqbul me'yoriy-huquqiy bazani yaratish jarayonida markaziy banklar, XVF va Moliyaviy barqarorlik kengashi kabi xalqaro tashkilotlarning roli yuzasidan ko'plab savollar tug'ilmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rag'batlantirish yoki ularni cheklashda tartibga solishning o'ri qay darajada bo'lishi lozimligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mavzusiga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, bir qator yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlar ham mavjud. Bularga moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishga madaniy me'yorlarning ta'siri, ularning tarqalishida tarmoq effektlarining o'ri, shuningdek, bu texnologiyalarning moliyaviy inklyuzivlikka ta'siri kiradi.

Kelajakda ilg'or bank texnologiyalarini rivojlantirish va shu orqali bank mahsulotlari hamda xizmatlari sifatini oshirish bank muassasalari uchun faoliyatning asosiy ustuvor yo'nalishiga aylanishi mumkin. Shunga ko'ra, har bir kredit tashkiloti rivojlanishi uchun zamonaviy iqtisodiy voqelikni inobatga olgan holda butun bank sohasini kompleks tarzda rivojlantirish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat yuritishi zarur. Mavjud innovatsion yondashuvlar bank loyihalari va xizmatlari portfelini kengaytirish, shuningdek, tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, aksariyat hollarda bank faoliyatining samaradorligi va rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy soha rivojlanishining yangi bosqichi muqarrar ravishda raqamli transformatsiyaga olib kelib, bank mahsulotlari, xizmatlari, marketing va savdo, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda operatsion jarayonlar raqamli muhitga o'tmoqda [1].

L. Koxning fikricha, "...bank innovatsiyalari – bevosita foydalanuvchilar uchun ishlab chiqilgan va mijozlar tomonidan qo'llaniladigan, avvalgi texnologik innovatsiyalarga nisbatan takomillashtirilgan, bank jarayonining bir qismi bo'lgan zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsiyalardir" [2].

Umuman olganda, raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini joriy etish va moliya sohasida yangi texnologiyalardan faol foydalanish doirasida tijorat banklarining biznes jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Hozirgi vaqtda fintech kompaniyalari va banklar o'z faoliyatlarida turli fan-texnika yutuqlarini qo'llashga intilmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar turli manbalardan, jumladan, tartibga soluvchi hisobotlar, markaziy bank hisobotlari va sanoat tadqiqotlaridan olingan ommaviy ma'lumotlardan iborat. Shuningdek, ilmiy jurnallar, kitoblar va ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar kabi ikkilamchi manbalardan ham foydalanilgan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar – xususan, adabiyotlarni ko'rib chiqish va vaziyatni tahlil qilish metodlari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalarga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularni chuqur tushunish moliyaviy innovatsiyalar ta'sirini oldindan baholash va prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki omillar bankning strategiyasi va tashkiliy tuzilmasi bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillarga tartibga soluvchi muhit, raqobat sharoiti va texnologik taraqqiyotni misol qilish mumkin.

Tartibga solish bank tizimidagi moliyaviy innovatsiyalarning muhim omillaridan biri sanaladi. Bank faoliyatini tartibga solish jarayoni banklar tomonidan mijozlarga taklif qilinadigan mahsulot va xizmatlar spektriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Bazell II va III standartlari kapital va likvidlikka qo'yilgan yangi talablarni belgilagan bo'lib, bu banklarni ushbu talablarga moslashish maqsadida yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishga undagan [3]. Bundan tashqari, ayrim qoidalar va standartlar moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishi yoki cheklab qo'yishi mumkin. Masalan, bank sohasidagi raqobatni rivojlantirishga qaratilgan tartibga solish mexanizmlari innovatsiyalarni rag'batlantirishi ehtimoldan holi emas.

Raqobat bank tizimidagi moliyaviy innovatsiyalarni harakatga keltiruvchi yana bir asosiy omildir. Bu omil banklarni mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradigan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga undaydi. Bank sohasidagi raqobat kuchayishi, shuningdek, yangi ishtirokchilar – ayniqsa, innovatsion moliyaviy xizmatlar taklif qiluvchi fintech kompaniyalarining kirib kelishiga zamin yaratadi. Barth va hamkorlar



tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda bank sohasidagi raqobat kuchayishi moliyaviy innovatsiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [4].

Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishda texnologik taraqqiyot ham alohida ahamiyatga ega. Texnologik rivojlanish banklarga yangi mahsulotlar yaratish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, texnologik yutuqlar natijasida mobil banking, kontaktsiz to'lovlar va onlayn banking xizmatlari paydo bo'ldi. Martinez Peria va Shmuklerlar fikricha, texnologik taraqqiyot rivojlanayotgan bozorlarda moliyaviy innovatsiyalarning ilgari surilishida muhim omil hisoblanadi [5].

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy innovatsiyalarni harakatga keltiruvchi omillar turlicha shakllanadi. Rivojlangan mamlakatlarda tartibga solish va raqobat asosiy rol o'ynasa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa an'anaviy bank infratuzilmasidan chetlab o'tish imkoniyati tufayli texnologik taraqqiyotga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Bu bozorlarda moliyaviy innovatsiyalar aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kredit olish imkoniyatlarini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Xususan, AQSHda tijorat banklari 1999-yildagi Gramm-Leach-Bliley qonuni (GLBA) kabi me'yoriy hujjatlariga amal qilish jarayonida onlayn banking va mobil ilovalarni joriy etgan. Bu esa banklarga o'z xizmatlarini an'anaviy bank faoliyatidan tashqariga kengaytirish imkonini bergan. Natijada, "peer-to-peer" kreditlash va raqamli to'lovlar kabi innovatsion mahsulotlarni taklif qiluvchi fintech kompaniyalarining ko'payishiga turtki bo'lgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, aksincha, bank sektoridagi texnologik taraqqiyot muhimroq rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarda an'anaviy bank infratuzilmasi ko'pincha zaif yoki umuman mavjud emas, bu esa innovatsion moliyaviy texnologiyalarni tez joriy etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Keniyada M-PESA kabi mobil to'lov xizmatlarining joriy etilishi mamlakat moliya sektorida tub o'zgarishlarga olib kelib, ilgari bank xizmatlaridan foydalanmagan millionlab kishilarga moliyaviy imkoniyatlar yaratdi [6].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va kredit shartlarini yaxshilashda moliyaviy innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, Hindistonda noyob bo'lgan "Aadhaar" identifikatsiya raqamining joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlar, jumladan bank hisoblari, sug'urta va kreditlardan foydalanishni osonlashtiruvchi raqamli identifikatorlar yaratildi [7]. Bu esa tadbirkorlikni rag'batlantirish va ish o'rinlarini yaratish orqali Hindiston iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shmoqda.


Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, Rossiya bank tizimi sezilarli o'zgarishlarga duch kelib, bozor tizimiga o'tdi. 2000-yillarning boshida raqobatni rivojlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida tartibga soluvchi islohotlar amalga oshirildi. Natijada yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'ldi [8]. Biroq mamlakatda korrupsiya va bank tizimiga nisbatan ishonchning pastligi kabi muammolar saqlanib qolib, bu holat moliyaviy innovatsiyalarning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda [9].

Germaniya bank tizimi o'zining an'anaviy universal bank modeli bilan mashhur bo'lib, unda banklar jismoniy shaxslar va korxonalar uchun keng ko'lamli moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. So'nggi yillarda esa mamlakatda raqamli bank platformalari va peer-to-peer kreditlash kabi innovatsion yechimlarni taklif qilayotgan yangi fintech kompaniyalari faoliyati kengaymoqda [10]. Bu o'zgarishlarga raqobatni rivojlantirishga qaratilgan qonunchilikdagi islohotlar hamda moliya sektoridagi texnologik yutuqlar turtki bo'lmoqda.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya jahonda moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. London fintech startaplari va innovatsion laboratoriyalar uchun markazga aylangan. Ochiq bank faoliyatini joriy etish va "tartibga soluvchi sandbox"ni yaratish kabi qonunchilikdagi islohotlar yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishga imkon berdi [11]. Shuningdek, mamlakatda kelajakda innovatsiyalarning yangi to'lqiniga sabab bo'lishi kutilayotgan blokcheyn va raqamli valyutalar sohalariga yirik sarmoyalar yo'naltirilmoqda.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Buyuk Britaniyada onlayn bankingdan foydalanish 2007-yildan buyon barqaror o'sib bormoqda. O'sha yili aholining atigi uchdan bir qismi bu xizmatdan foydalangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 90 foizdan oshgan. Bankomatlar joriy etilgan paytdan boshlab bank va moliya sanoati odatda texnologik yutuqlarni birinchi bo'lib qabul qiluvchi sohalaridan biri hisoblangan.

Moliyaviy operatsiyalar uchun xavfsiz internet tizimlari keng ommalashganidan beri tranzaksiyalarni amalga oshirish, kredit kartalaridan foydalanish, kredit liniyalarini ochish yoki jamg'armalarni investitsiya qilish uchun onlayn bank hisobiga kirish internet faoliyatining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylangan (1-rasm) [12].



1-rasm. 2007-yildan 2022-yilgacha Buyuk Britaniyada onlayn-bankingdan foydalanish darajasi foizda¹

Xitoy hukumati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish maqsadida moliyaviy innovatsiyalarni ilgari surish yo'lida uyg'unlikda harakat qilmoqda. Bu borada, birinchi navbatda, yangi fintech kompaniyalar rivojlanishini rag'batlantirish hamda mobil to'lov platformalari kabi innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgarishlar kiritilgan [13]. Mamlakat, shuningdek, blokcheyn va raqamli valyutalar sohasida ham dunyoda yetakchilardan biri bo'lib, hozirda Xitoy hukumati Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) imkoniyatlarini o'rganmoqda.

So'nggi yillarda Braziliyada ham raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgarishlar natijasida mamlakatda faoliyat yuritayotgan fintech kompaniyalari soni sezilarli darajada ortdi [14]. Bu, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlar uchun kredit olish imkoniyatini yaxshilash va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishga qaratilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishga olib keldi. Mamlakat blokcheyn va raqamli valyutalar sohasiga ham katta sarmoyalar kiritmoqda.

Umuman olganda, ushbu misollar tartibga solishdagi o'zgarishlar, raqobat va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni va ularning moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi rolini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda moliya institutlari o'z faoliyat samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni tobora kengroq o'zlashtirmoqda. Eng muhim texnologiyalar qatoriga mobil banking, blokcheyn va robo-maslahatchilar kiradi. Mobil banking ko'plab iste'molchilar uchun muhim vositaga aylangan — u foydalanuvchilarga bank hisoblariga kirish, tranzaksiyalarni amalga oshirish, hatto smartfonlar orqali kredit olish imkonini beradi. Ayniqsa, an'anaviy bank infratuzilmasi yetishmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarda bu texnologiya aholining bank xizmatlariga munosabatini tubdan o'zgartirmoqda.

Masalan, JPMorgan Chase mobil banking ilovasini ishga tushirgan bo'lib, bu mijozlarga smartfonlar orqali hisob qoldiqlarini ko'rish, to'lovlarni amalga oshirish va pul o'tkazish imkonini beradi. Bankning ma'lumotlariga ko'ra, mobil banking ilovasi 37 million martadan ortiq yuklab olingan va 50 milliard dollardan ortiq qiymatdagi cheklarni depozit qilish uchun foydalanilgan [15]. Shunga o'xshab, Ispaniyaning BBVA banki ham mijozlarga hisob ochish, kredit olish va to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi mobil ilovani ishga tushirdi. Ilova 36 million martadan ortiq yuklab olingan bo'lib, bir nechta tillarda mavjudligi unga boshqa ilovalar ustidan ustunlik beradi [16]. Mobil bankingning afzalliklari qatoriga mijozlar uchun qulaylik, banklar uchun xarajatlarning kamayishi va kam ta'minlangan qatlamlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi kiradi. Biroq, firibgarlik, ma'lumotlarning sizib chiqishi va ishonchli, tezkor internetga ehtiyoj kabi xavfsizlik muammolari ham mavjud.

Boshqa tomondan, blokcheyn texnologiyasi to'lovlardan tortib hisob-kitoblarga qadar moliyaviy institutlarning tranzaksiyalarni qayta ishlash usulini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Blokcheyn — bu bir nechta ishtirokchilar bir vaqtning o'zida foydalanadigan taqsimlangan hisob-kitob tizimi bo'lib, tranzaksiyalarda vositachilarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Ushbu texnologiya tranzaksiya xarajatlarini pasaytirishi, moliyaviy institutlarning shaffofligi va samaradorligini oshirishi mumkin.

Misol uchun, Avstraliya qimmatli qog'ozlar birjasi (ASX) o'zining eski kliring va hisob-kitob tizimini almashtirish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanmoqda. Bu esa savdoni tezroq va xavfsizroq tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Xuddi shunday, Ispaniyaning Banco Santander banki mijozlarga tez va xavfsiz xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beruvchi blokcheynga asoslangan valyuta xizmatini ishga tushirdi [17]. Blokcheyn texnologiyasining afzalliklari qatoriga samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni kuchaytirish, xarajatlarni kamaytirish va oshkoralikni ta'minlash kiradi. Biroq, ushbu texnologiya bilan bog'liq muammolar

¹ Manba: Milliy statistika boshqarmasi (Buyuk Britaniya)



ham mavjud bo'lib, ularga standartlashtirish zarurati, tartibga solishdagi noaniqliklar va texnik nosozliklar xavfi kiradi.

Robo-maslahatchilar investitsiya qarorlarini qabul qilishda algoritmlardan foydalanadigan avtomatlashtirilgan investitsiya platformalari hisoblanadi. Bu platformalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ko'pincha an'anaviy moliyaviy maslahatchilarga nisbatan arzonroq narxda shaxsiylashtirilgan investitsiya tavsiyalarini taqdim etadi. Ushbu texnologiya sarmoyaviy maslahat olish imkoniyatini demokratlashtiradi hamda moliyaviy rejalashtirish xizmatlarining ommaviylashuviga hissa qo'shadi.

Amerikalik robo-maslahatchi Wealthfront mijozlarga moliyaviy maqsadlari va riskka bardoshlilik darajasiga qarab moslashtirilgan investitsiya portfellarini taklif etishda mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadi [18]. Shuningdek, Buyuk Britaniyada joylashgan Nutmeg robo-maslahatchisi ham mijozlarga ehtiyojlariga moslashtirilgan, arzon narxdagi investitsiya portfellarini taklif qilmoqda. Robo-maslahatchilarning afzalliklariga xarajatlarning arzonligi, keng foydalanish imkoniyati va yuqori darajadagi shaxsiylashtirilgan tavsiyalar kiradi. Biroq, ularning ayrim kamchiliklari ham mavjud: inson nazorati zarurligi, algoritmlardagi xatolar xavfi va avtomatlashtirilgan tavsiyalar asosida mijozlar tomonidan shoshilinch qarorlar qabul qilinishi mumkinligi shular jumlasidandir.

Umuman olganda, ushbu raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni mustahkamlash orqali bank sanoatini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega. Biroq, ular bilan birga banklar va tartibga soluvchi organlar ehtiyotkorlik bilan boshqarishi lozim bo'lgan jiddiy xavflar va qiyinchiliklar ham paydo bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanayotgan mamlakatlar global mintaqalararo bank bozorlarida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun an'anaviy bank tizimlarini chetlab o'tish hamda raqamli moliyaviy texnologiyalarni jadal joriy etish salohiyatiga ega. Bu salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun bir nechta strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratilishi zarur.

Birinchidan, innovatsiyalarni, raqobatni va raqamli moliyaviy texnologiyalarga sarmoya kiritishni rag'batlantiruvchi tartibga soluvchi islohotlarga ustuvor ahamiyat berish kerak. Fintech startaplar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va xavfsizlik bo'yicha aniq ko'rsatmalar belgilanishi zarur.

Ikkinchidan, raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan yuqori tezlikdagi internet, mobil tarmoqlar va boshqa raqamli infratuzilmalarga sarmoya kiritilishi lozim. Kuchli raqamli ekotizimlarni shakllantirish jarayoni hukumat, xususiy sektor va xalqaro rivojlanish hamkorlari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikni talab qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy imkoniyati cheklangan aholi qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bunga mobil banking va raqamli to'lov xizmatlarini ommalashtirish orqali erishish mumkin. Bu nafaqat moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi, balki moliyaviy savodxonlikni ham rivojlantiradi.

To'rtinchidan, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish uchun an'anaviy banklar bilan fintech kompaniyalari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Bu esa an'anaviy banklarning fintech startaplar bilan hamkorlik qilishga tayyorligini va ularning yondashuvini tubdan o'zgartirishni talab qiladi.

Va nihoyat, inson kapitaliga investitsiya kiritish masalasi eng muhim omillardan biridir. Bank sektorining raqamli transformatsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiruvchi ta'lim va o'quv dasturlariga sarmoya kiritish zarur. Bu, ayniqsa, raqamli moliyaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va boshqarishga qodir malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli moliyaviy texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bank tizimini isloh qilish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun esa tartibga solish islohotlari, infratuzilmaga sarmoya, moliyaviy savodxonlikni oshirish, bank-fintech hamkorligini rivojlantirish hamda inson kapitaliga sarmoya ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Shu tariqa, rivojlanayotgan mamlakatlar global raqamli bank bozorida yetakchi o'yinchilardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Laeven, L., Levine, R. and Michalopoulos, S. (2015), "Financial innovation and endogenous growth" Journal of Financial Intermediation, Vol. 24, Issue 1, pp. 1-24.
2. Кох Л.В. Принципы и механизмы повышения эффективности банковской деятельности на основе использования инноваций: автореферат дисс... д-ра экон. наук / Л.В. Кох. – Иваново, 2010. – С.21.
3. G. M. Hodgson, Journal of Economic Issues, 40, 1 (2006).
4. F. Allen, A. M. Santomero, Journal of banking & finance, 25, 271 (2001).
5. J. R. Barth, C. Lin, P. C. Lin, & F. M. Song, Research in International Business and Finance, 38, 28 (2016).



6. M. S. Martinez Peria, S. L. Schmukler, *Journal of Finance*, 56, 1029 (2001).
7. I. Mbiti, D. N. Weil, National Bureau of Economic Research, Working Paper, 17129 (2011).
8. B. Chakravorti, S. Chaturvedi, P. Choudhary, The Fletcher School, Tufts University (2018). <https://fletcher.tufts.edu/>
9. A. Kuznetsov, *Journal of International Commerce, Economics and Policy*, 3, 33 (2008).
10. E. Balatsky, I. Kolesnikova, A. Sinyakov, *Financial Law Review*, 3, 8 (2019).
11. Bertelsmann Stiftung, *Fintech in Germany* (2018). <https://www.bertelsmann-stiftung.de/>.
12. R. Barnes, T. Stanton, *Regulatory sandboxes: A global perspective* (2019). <https://www.accenture.com/>.
13. J. Yin, J. Zhang, *Journal of Economic Perspectives*, 32, 125 (2018).
14. A. L. Menezes, L. A. B. Barros, M. C. da Silva, *Electronic Journal of Information Systems in Developing Countries*, 86, (2020).
15. JPM Coin, JPMorgan Chase & Co. (2022). <https://www.jpmorgan.com/>.
16. Digital Banking: BBVA Leads the Transformation of the Financial Sector. BBVA (2022). <https://www.bbva.com/>.
17. Santander Launches World's First End-to-End Bond on Blockchain, Santander Group (2019). <https://www.santander.com/>.
18. Wealthfront: Investing Made Easy, Wealthfront Inc. (2022). <https://www.wealthfront.com/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>